



Qo'qon DPI

**ILMIY
XABARLAR**

ISSN: 3030-3958

№ 8/2025



“ALG‘UL”- O‘ZBEK DRAMATURGIYASIDA YANGI HODISA

Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti doktoranti

usmanovaziyoda1991@gmail.com

+99899 396-25-21

Annotatsiya. “Alg‘ul” – O‘zbekiston xalq shoiri va dramaturgi Xurshid Davron qalamiga mansub, temuriylar sulolasi davri, xususan, Mirzo Ulug‘bek fojiasi tasvirlangan tarixiy drama. Asar nafaqat tarixiy voqealarni, balki inson ruhiyatidagi murakkab ziddiyatlarni, hokimiyat uchun kurashlarning ayanchli oqibatlarini chuqur tahlil qilishi bilan o‘zbek dramaturgiyasida yangi bir bosqichni boshlab berdi.

Kalit so‘zlar. Drama, psixologik tahlil, fojia, shaxs fojiasi, konflikt.

“АЛГУЛ” — НОВОЕ ЯВЛЕНИЕ В УЗБЕКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ

Аннотация. “Алгуль” — историческая драма народного поэта и драматурга Узбекистана Хуршида Даврона, повествующая об эпохе правления династии Тимуридов, в частности о трагедии Мирзо Улугбека. Произведение открыло новый этап в узбекской драматургии, глубоко анализируя не только исторические события, но и сложные конфликты в человеческой психике, трагические последствия борьбы за власть.

Ключевые слова: Драма, психологический анализ, трагедия, личная трагедия, конфликт.

“ALGUL” — A NEW PHENOMENON IN UZBEK DRAMA

Abstract. “Algul” is a historical drama by the national poet and playwright of Uzbekistan Khurshid Davron, telling about the era of the Timurid dynasty, in particular about the tragedy of Mirzo Ulugbek. The work opened a new stage in Uzbek dramaturgy, deeply analyzing not only historical events, but also complex conflicts in the human psyche, the tragic consequences of the struggle for power.

Key words: Drama, psychological analysis, tragedy, personal tragedy, conflict.

Kirish. XX asrning boshlarida o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan drama janri tez sur‘atlar bilan rivojlandi. Uning ommalashishiga sabab, matndan ko‘ra, tomoshabinga ko‘proq ta’sir etish kuchi edi. Ayniqsa, o‘sha davrda savodxonlik darajasi past bo‘lgani sababli, drama orqali odamlarga bilim berish va adabiyotning estetik ta’sirini yetkazishning eng samarali yo‘li topildi.

Adabiyotlar. Mirzo Ulug‘bek tarixiy fojiasi o‘zbek va jahon adabiyotining yetakchi mavzularidan biri bo‘lgan. Xususan, o‘zbek adabiyotida M.Shayxzoda, O.Yoqubov, tarixchi B.Axmedovlarning tadqiqot ishlari mavzusiga aylandi. Temuriylar tarixini chuqur o‘rgangan tarixchi olim, o‘zbek adabiyotining yetakchi namoyondasi Xurshid Davronning ham e’tiboridan chetda qolmadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda psixologik, biografik, strukturaviy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Xurshid Davronning “Alg‘ul” dramasi buyuk podshoh va olim Mirzo Ulug‘bek hayotining eng so‘nggi, fojialarga boy ikki yilini tasvirlaydi. Asar Ulug‘bekning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va uning farzandlari, saroy ahli, shogirdlari bilan bo‘lgan murakkab munosabatlarini yoritadi. Dramaning markazida Ulug‘bekning bir tomondan sulton, ikkinchi tomondan esa ota sifatidagi o‘zaro ziddiyatlari yotadi. Aynan shu ziddiyatlar asar voqealarini harakatga keltirib, Ulug‘bek shaxsining fojiasini ochib beradi.

Ulug‘bek: Huv, anavi yulduz Baytul Javzodur... Xuddi g‘azabga mingan Abdullatif ko‘zlariga o‘xshaydur!

Ali Qushchi: Shomliklar ani Iblis ko‘zi demishlar. ... Filhaqiqat, Alg‘ul g‘alatidur. Uch kun yonib, so‘ngra so‘nadi-da, yana paydo bo‘lub, avvalgidek porlab turaveradi.[1]

Dramaning nomlanishi aynan mana shu yulduz nomi bilan bog‘liq. “Aniq so‘zlarni topish va ularni kam so‘z bilan ko‘p ma’no anglatadigan qilib joylashtirish g‘oyat qiyin, chunki so‘zlar siqiq, fikrlar batafsil keng bo‘lishi kerak, ya’ni so‘zlardan jonli kartinalar yaratilishi tasvirlanayotgan kishi xarakteri, so‘zning oqimi va ohangini kitobxon xotirasiga darhol naqshlab qo‘yish kerak. Odamlar va buyumlarni so‘z bilan «chaplab» tashlash boshqa gap, ularni «plastik» jonli qilib tasvirlash boshqa gap...”[2] Xurshid Davron adabiyotning mana shu o‘zgarmas oltin qoidasiga amal qilib alg‘ul so‘zini o‘quvchilar xotirasiga muhrlab qo‘ydi. Bir qarashda bu so‘z o‘quvchiga notanish. Ammo dramani o‘qigan kitobxon so‘z ma’nosi, shu nom bilan ataluvchi yulduzning o‘ziga xosligi, uning Mirzo Ulug‘bek taqdiri bilan bog‘lanuvchi o‘rinlarini bir umrga eslab qoladi.

Dramada bu yulduz iztirob ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Mirzo Ulug‘bekning dard-u xasrati ilm-u nujumga berilgan vaqtlarida bir on bitganday tuyulsa-da, odatiy hayotiga qaytganda uni yana o‘z iskanjasiga olar edi. Dramaturg “Alg‘ul” nomini tanlashda yulduzning astronomik xususiyatlarini ham puxta o‘rganib chiqqaniga guvoh bo‘lamiz. Bu kosmik jismga ilmiy adabiyotlarda quyidagicha ta’rif beriladi: “Tutiluvchi qo‘shaloq yulduzlarning tipik vakili qadimda arablar aniqlagan va Alg‘ul («Devning ko‘zi» ma’nosini beradi) deb atagan Persey yulduz turkumining 3 yulduzidir. Bu qo‘shaloq yulduzlarning orbita tekisliklari qarash chizig‘i bo‘ylab yotganidan, umumiy massa markazi atrofida aylanayotganda, ular bir-birini to‘sib o‘tadi va, natijada bu hol yulduz ravshanligini davriy ravishda (~3 sutkalik) o‘zgartirib, qo‘shaloqligidan darak beradi.”[3] Yulduzning tabiiy xossalari Mirzo Ulug‘bekning ruhiy holatiga uyg‘un ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Xurshid Davron so‘zlarni shunchaki tanlamaydi, har birining tag zamiriga

yana bir muhim jihatni yuklashga harakat qiladi. Dramatik asarning ixcham syujetga egaligi va obrazlarning xarakter-xususiyatlarini ochib berishda muallif aralashmasligini hisobga olsak, birgina asar nomining o‘ziga ham qanchalik sergaklik va ziyraklik bilan yondashilganini sezishimiz mumkin.

Ayni shu onda dramaturg yana bir muhim masalani ko‘ndalang qo‘yadi, ya’ni diniy va dunyoviy ilmning ziddiyati. Bu masala islom paydo bo‘lgan davrlardan boshlab musulmonlarning asosiy ijtimoiy muammolaridan biriga aylandi. Payg‘ambarimiz vafotidan so‘ng musulmonlar orasidagi bo‘linish bu ziddiyatni yanada keskinlashtirdi. Nafaqat omi xalq balki, madrasa ilmini tugatgan ziyoli insonlar orasida ham faqat diniy bilimning o‘zi yetarli, osmon ilmini o‘rganish shakkoklik sifatida baholangan, buning ustiga mamlakatga yov bosqini yaqinlashib kelayotgan bir paytda podshoh – Mirzo Ulug‘bekning madrasani ta’mirlash masalasini old planga qo‘yishi saroy ahlining g‘azabini keltirdi. Dramaturg ustalik bilan xalq va saroy ichida tarqalgan gaplarni suhbat zanjirini uzmagani holda ulug‘ munajjimiga yetkazadi. Mirzo Ulug‘bekning bu e’tirozlarga qarshi bergan javobi hali-hanuz o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Ulug‘bek: Axir Payg‘ambari islom: «Garchi Xitoyda bo‘lsa ham ilm olishga intilinglar!» deganlarini unutdingizmu? Yo bu hadisi muborakni ham rad etasizmu?! Jaholatning timsoli bo‘lmish ayrim kimsalar har qanday ilmni mufsid derlar...

Men noqobil farzandim isyonidan ko‘proq jaholat isyonidan qo‘rqamen. Johillar o‘z zaharlarini obi hayot deb ko‘rsatadilar, xalqni chalg‘itadilar, millatni chohga sudraydilar. Ammo ilm ham, haqiqat kabi loyamutdur.

Asarda ilgari surilgan eng muhim g‘oyalardan biri jaholat va ma’rifatning o‘zaro kurashidir. Bu kurash kunimizda ham davom etmoqda. Islomni niqob qilib olgan ayrim munofiq kimsalar jaholat urug‘larini sepishda g‘ayrat ko‘rsatib, payg‘ambarimizning yuqoridagi kabi ilm olishning foydalari haqida aytgan hadislarini unutmogdalar. Dindan faqat shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanish ma’rifat nurlarini to‘sib qo‘ymaydi, albatta. Lekin ma’rifatning nurlari qanchalik yorqin porlamasin, baribir soyalarni batamom yo‘q eta olmasligi donishmand olim tarafidan e’tirof etiladi.

Dramaning eng ta’sirli nuqtalaridan yana biri amir Vafodorning onasi, ya’ni Mirzo Ulug‘bekning enagasi bilan bo‘lgan dialog sahnasidir. Ikki parda to‘qqiz ko‘rinishli dramaning uchinchi ko‘rinishi ona va Mirzo Ulug‘bek suhbatini asosiga qurilgan. Xiyonat yo‘liga kirgan emikdoshi amir Vafodorga qanday jazo berish haqida amirlar va podshoh o‘rtasida bahs ketayotgan va hali Mirzo Ulug‘bek uzil-kesil o‘lim jazosini ma’qullamagan bir vaqtda o‘z farzandini hukmdoriga vafosizlik qilgani uchun zaharlagan onaning jasorati boshqalarga ibrat qilib ko‘rsatishga arziydi. Suhbatdoshlarning ikkisi ham yaqinlarining xiyonatidan aziyat chekayotgani dialogda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ular orasidagi farq shundaki, ona noqobil o‘g‘lining qilmishlarini avvalo vataniga, hukmdoriga, tuz yegan xonadoniga, soniyan o‘ziga va bergan oq sutiga xiyonat deb biladi. Farzandini o‘z qo‘li bilan zaharlaydi. Balki shu suhbat davomida onaizor bir og‘iz o‘g‘li uchun podshohdan shafqat tilashi mumkin edi. Ammo u

bunday qilmaydi, xiyonat yo‘liga kirgan farzandini olamga ibrat bo‘lishi uchun jazolaydi. Bu holat onadan qanchalik qat’iyatni talab qilsa, shunchalik farzand dog‘ida kuyish va bir umrlik iztiroblarga ham rozi bo‘lish edi. Onaning iztiroblari dramada quyidagicha aks etadi:

Ona: Nabiralarim saltanat sarhadlarida jonfidoyilik qilib turibdilar. Ular otalari qilmishini bilmasinlar, betlari qaro bo‘lib turmasinlar deb shunday qildim! Bolam sharmanda bo‘lmasun, jallod qo‘lida o‘limdan qo‘rqib talvasaga tushmasun, hech bo‘lmasa o‘lumini qo‘rqmay kutib olsun deb shunday qildim, bolam! Axir, hayot yolg‘iz nafas olishdan iboratmu, sharmandalikdan o‘lum afzal emasmu?!. Ammo men qilgan ishni siz qilmang... O‘g‘lingizni avf eting... avf eting... Oh, bag‘rimdan ko‘chgan bolam!

Yuqoridagi matndan ham anglashiladiki, onaning ruhiy holati nihoyatda chigal. U bir vaqtning o‘zida o‘zini ham aybdor his qiladi, ham farzandini himoya qilishga intiladi, ham o‘z ruhiyatidagi aql va qalb ziddiyatini ifodalashga harakat qiladi. Birinchidan, farzandining chakki bosgan qadami uchun o‘zini ayblaydi, uning har bir ishi uchun mas’uliyat hissini tuyadi. Ikkinchidan, jigarbandini sharmandalik va qo‘rquvdan asrab qolishga bo‘lgan onalik instinktini namoyon qiladi. Uchinchidan, qilgan ishining to‘g‘riligini aqlan tan olsa ham, qalban tan olishni istamaydi, shuning uchun ham Mirzo Ulug‘bekdan shahzodani afv etishini so‘raydi. Mirzo Ulug‘bek shahzoda bilan kelishib toj-u taxtni unga topshirishni, o‘zi esa madrasada mudarrislik qilib olimlik faoliyati bilan shug‘ullanishni, agar Abdullatif bunga ham ko‘nmasa ustiga eski palos yopib darveshlik qilishni ko‘ngliga tugib qo‘yadi. Afsuski, toj-u taxt bunday murosaga rozi bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda dramaturg ona tilidan muhim bir masalaga o‘quvchi diqqatini tortadi: “Axir, hayot yolg‘iz nafas olishdan iboratmu, sharmandalikdan o‘lum afzal emasmu?!” Buni tarix ming karra isbotlagan. Shahzoda Abdullatifning padarkushligi va birodarkushligi bunga birgina misol.

Yozuvchi Odil Yoqubov ta’biri bilan aytganda, “jismi nogiron, qalbi majruh” shahzoda Abdulazizning psixologik tasviri keyingi ko‘rinishda aks etadi. Shahzoda otasining panohida qanday xunrezliklarni amalga oshirgan va bundan also uyalmagan bo‘lsa, akasining poytaxtni egallash uchun yo‘lga chiqqanini eshitib shunchalik talvasaga tushib qoladi. Valiahd shahzodaning o‘zini bunday bema’ni va xor tutishi tabiiyki hukmdorga yoqmaydi.

Ulug‘bek: Besh o‘g‘lonimdan ikkingiz qoldingiz. Ammo netaykim, biringiz xiyonatkor, biringiz qo‘rqoq! Bir-biringizga suyanib ish ko‘rasiz degan umidim bor edi!

Abdullaziz: Meni valiahdlikdan xalos eting, otajon! Mendan rahm-u shafqatingizni ayamang... U meni o‘ldiradi!..

Ulug‘bek: Adashgan ekanman! Zaifliging tufayli erkalay-erkalay seni shu holga solgan men o‘zum! Abdullatif mendan uzoqda o‘sdi... Mehr-u e’tiborni o‘zgalardan oldi va o‘zi ham o‘shalarniki bo‘lib qoldi. Buni angladimu seni... qanchalik muruvvat qilsam, shunchalik meniki bo‘lasan deb yonimdan jildirmadim. Ammo, netaykim, bu safar ham adashibman!

Valiahd shahzodani to‘g‘ri tanlash o‘ta muhim vazifa sanaladi. Chunki bu jarayon shunchaki merosxo‘rlik masalasi emas. Bu maqomga erishgan shahzoda kelajakda xalqni

boshqaradi. Uning taqdiri bevosita xalq taqdiri bilan birlashadi. Shuning uchun ham undan birinchi galda boshqaruvchilik, siyosiy bilim va tajriba, axloqiy jihatdan mukammallik talab etiladi. Ammo Mirzo Ulug‘bekning tanlovi yanglish ekanligini tarixni badiiy asarlardan o‘rganayotgan oddiy kitobxon ham ilg‘aydi. Sanab o‘tilgan fazilatlarining birortasi ham shahzoda Abdulazizda mavjud emas. Buni Mirzo Ulug‘bekning pushaymonlik tuyg‘usi bilan aytgan so‘zlari tasdiqlaydi.

Keyingi ko‘rinishda amirlar va Mirzo Ulug‘bekning fikriy ziddiyatlari yana davom etadi. Dramaning boshida podshohga ikki yo‘ldan birini tanlashni talab etgan amirlar bu safar shahzodani to‘xtatishning yagona yo‘li qilich zarbi bilan ekanligini ta’kidlaydilar. Amirlarning talablarida ham jon bor. Chunki o‘rta asrlar hayotida qilich kuchi juda ham ahamiyatli ekanligi barchamizga ma’lum. Bir sulolaning dunyodan batamom yo‘q bo‘lib ketishi va boshqa sulolalarning paydo bo‘lishi, saltanatlarning poydorligi qilich zarbiga chambarchas bog‘liq edi. Bunga temuriylar davlatining asoschisi Sohibqiron Amir Temur faoliyatini yaqqol misol sifatida keltirish mumkin. Lekin bu kuch faqatgina mamlakatlarni g‘orat qilish, aholini qilichdan o‘tkazish, boylik va shuhrat orttirishni maqsad qilmasligi kerak. Mashvaratdagi barcha amirlarning fikrlari bir yon, Bobo Husayn Turkistoniyni so‘zlari bir yon bo‘lib Mirzo Ulug‘bekka psixologik ta’sir etadi. Aslida hammaning fikri bir: bundan keyingi ishlarni faqat qilich ishlatish yo‘li bilan hal qilish mumkin. Ammo mana shu fikrni yetkazish usuli sohibining qalbidagi istaklarni oshkor qiladi. Bobo Husayn shunchaki shahzodani to‘xtatmoqchi emas, u bundan keyin bo‘ladigan barcha isyonlarni to‘xtatmoqchi. Ilm-ma’rifatning kuchiga tan berishini yashirmaydi, Mirzo Ulug‘bekni faqat saltanatini emas, uning ilmi va tafakkurini ham himoya qilishga tayyor. Uning bu mulohazalari bo‘ljak urushning nafaqat ota-o‘g‘il, balki ma’rifat va jaholatning jangi ekanligiga ramziy ishoradir. Oqil va dono hukmdor buni yaxshi anglaydi va beixtiyor ichki tug‘yon tashqariga otilib chiqadi: □

Ulug‘bek: O‘g‘lim emas, jaholat... Jaholat ustimga bostirib kelmoqda! O‘g‘limning emas, jaholatning qilichi yalang‘och!.. Daryoning bu tomoniga o‘tishga haqqing yo‘q edi, nega o‘tding? Nega?! Qayerdasan, Abdullatif? Qulog‘ingning bir chekkasi bilan bo‘lsa ham bu bepoyon kecha quchog‘idagi iltijolarimni eshitayotgan bo‘lsang, menga sado ber, «Ota, men shu yerdaman!» deb ayt!

Asarning kulminatsion nuqtasi shundan keyin boshlanadi. Drama Mirzo Ulug‘bek va shahzoda Abdullatifning ixtiloflarini tasvirlasa-da, fojining biron o‘rnida qilich zarbi, jang suroni, jangovar otlarning kishnashi eshitilmaydi. Ota-o‘g‘il orasidagi jang faqat Mirzo Ulug‘bekning ong oqimida sodir bo‘ladi. U ota sifatida o‘g‘lining o‘ziga qarshi bosh ko‘targanini qabul qilishni istamaydi. Shu bois bu holatni “jaholatning isyoni” deb ataydi. Ota farzandini xiyonatkor ekanligini tan olishdan ko‘ra uni jaholat qurboni deb qabul qilishni ma’qul ko‘radi. “Daryoning bu tomoniga o‘tishga haqqing yo‘q edi, nega o‘tding? Nega?! Qayerdasan, Abdullatif?” murojaatida esa cheksiz g‘am-anduh, afsus-nadomat zohir bo‘ladi. Bu bilan u ota bo‘lib farzand tarbiyasida adashgani, hukmdor sifatida qo‘l ostidagilarni yetarlicha idora eta olmaganlikda o‘zini ayblaydi. U o‘zini yolg‘iz va umidsiz his qilgani uchun o‘g‘liga iltijo qiladi.

Xurshid Davron “Padarkush” she’rida ta’kidlaganidek, Abdullatifning xiyonatini faqat ota bo‘lib Ulug‘bekkina kechira oladi. Atrofdagilar otaning bu holatini tushunishga ojiz, Mirzo Ulug‘bek qanchalik ilmiy va dono zot bo‘lishiga qaramay, psixologik bosim ostidagi shaxsiy fojia oldida u ham nochor bir insonga aylanadi.

Mirzo Ulug‘bekning jangga kirishga uzil-kesil qaror qilishida Bobo Husayn tarafidan tasodifan qo‘lga kiritilgan shahzoda Abdullatifning saroy amirlaridan biriga yozgan maktubi sabab bo‘ladi. Dilida cheksiz qayg‘u, umidlari singan holda jangga kirgan podshohning esa mag‘lubiyati muqarrar ekanligini bilgani uchun Mirzo Ulug‘bek mashaqqatlarga to‘la hayotiga vido aytib, ilm va tafakkurga yo‘g‘rilgan, yulduzlar yoritib turgan olis yo‘lga chiqishga qaror qiladi.

““Alg‘ul” misoli ostin-ustun qavatli mustahkam bino. Yuqori qavat go‘yoki keng-mo‘l sahna, ijrochilar o‘z rollarini ijro etadilar. Birinchi qavat ma’no-mazmun, matn osti, shovullab oqadigan daryo. Har ikki qavatda ramziy hayot jo‘sh uradi, “Segoh” kuyi yangrab turadi.”[4] Mirzo Ulug‘bek maktub sabab eng so‘nggi umidini ham yo‘qotdi. Jismonan mahv bo‘lishini bilgani bois farzandiday aziz bo‘lgan ikki hamsuhbati Ali Qushchi va To‘yjonga vasiyat qoldiradi. Ilmiy merosini asrash borasidagi shogirdiga qoldirgan vasiyati tarix kitoblarida ko‘p bora tilga olinadi, ammo asardagi Ulug‘bekning To‘yjonga aytgan gaplari dramaturgiyada yangi badiiy topilmadir. U Hirotida endigina porlab kelayotgan Alisher Navoiyga vasiyat qoldiradi. Buyuk olim bo‘lajak buyuk shoirga tafakkurning hamisha qilich ustidan g‘alaba qilishi, lekin bu yo‘lda tafakkur egalari ming bora xo‘rlanib, mahv etilishlarini unutmagan holda o‘z yo‘lidan chekinmaslikni vasiyat qiladi.

Xulosa. Tarixiy mavzudagi asarlari bilan tanilgan Xurshid Davron dramalari adabiyotimizga yangicha ruh, yangicha yondashuv olib kirdi. Uning asarlaridagi shakl, mazmun va obrazlar tasviri o‘tmishga munosabatni, milliy merosni o‘rganishni yangi bosqichga ko‘tardi. Ijodkorning tarixiy manbalarni chuqur o‘rganganligi uning dramalarining muvaffaqiyatini ta’minlagan asosiy omillardan biri bo‘ldi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xurshid Davron “Alg‘ul dramasi”. – “Sharq yulduzi”, 2013-yil, 1-son.
2. Горький М. Адабиёт ҳақида Адабий-танқидий мақолалар,- Тошкент: Ўзадабийнашр, 1952.
3. Mamadazimov M. Astronomiya. – T.: O‘qituvchi, 2008.
4. Rasulov A. Alg‘ul – iztirob ramzi. “Yoshlik” jurnali. 2014-yil, 8-son.

FILOLOGIYA

TARIXGA OID TERMINLARNI O'QUV LUG'ATLARIDA BERILISHI <i>Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi</i>	756
THE USE OF POETIC REPETITION IN B.GENJEMURATOV'S POETRY <i>Aseilya Alimbayeva</i>	761
QORAQALPOQ TILIDAGI TASVIRIY SAN'AT ATAMALARINING FRANSUZ TILIDAN KIRISH YO'LLARI VA ETIMOLOGIK TAHLILI <i>Seytmuratova Ariwxan Ajiniyazovna</i>	767
ОБУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ С ПОМОЩЬЮ МУЛЬТИЛИНГВАЛЬНЫХ МЕТОДОВ С ПРИМЕНЕНИЕМ ИКТ КАК КЛЮЧЕВАЯ ТЕНДЕНЦИЯ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ <i>Жумамуратова Юлдуз Бахтияровна</i>	772
HOFIZ XORAZMIY DEVONIDA OT SO'Z TURKUMI TAHLILI <i>Karimboyeva Shohida Baxtiyor qizi, Soatova Sohiba Farhod qizi</i>	779
ROMAN POETIKASIDA XARAKTER VA KONFLIKT: ALI BEY VA OTABEK <i>Shukurova Oysha Zafar qizi</i>	783
ISSUES OF THE TRANSLATION OF GENGHIS AITMATOV'S NOVEL "MAVAL, WHEN THE MOUNTAINS FALLED" INTO THE KARAKALPAK LANGUAGE <i>B.T. Berdiyeva</i>	791
PRINCIPLES FOR DEVELOPING ACADEMIC WRITING SKILLS AND ETHICS: A CASE FOR ENGLISH LANGUAGE EDUCATION IN PHILOLOGY <i>Nasiba Rakhimova</i>	797
LINGUA-CULTURAL ASPECTS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN KARAKALPAK AND ENGLISH LANGUAGES <i>Abdiniyazova Sarbinaz</i>	802
MAHMUD QOSHG'ARIY MAQOLLARIDA SO'ZNING QUDRATI, TIL MADANIYATI VA MA'NAVIY QADRIYATLAR <i>Begmatova Dildora Abdunematovna</i>	808
G.G. MARKES ROMANLARIDA VAQT, XOTIRA VA KUTISHNING LINGVOPOYETIK TADQIQI <i>Nematillayev Akramjon Gofurjonovich</i>	818
THE NOMINATIVE-COMMUNICATIVE FIELD OF THE CONCEPT 'NON/BREAD' IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES <i>Buzurxanova Kamola Sanjarovna</i>	825
LINGUOCULTURAL FEATURES OF RELIGIOUS PROVERBS IN LANGUAGES OF DIFFERENT SYSTEMS <i>Kurbonova Marguba Sotvoldiyevna</i>	835
SABR KONSEPTINING LINGVOKOGNITIV, LINGVISTIK VA LINGVOKULTUROLIGIK ASOSLARI <i>Turg'unova Sh.A.</i>	843
O'ZBEK TILIDAGI GRAMMATIK TRANSFER VA INTERFERENSIYA JARAYONLARI <i>Qodirova Dilfuza G'opirjon qizi</i>	847
"ALG'UL"- O'ZBEK DRAMATURGIYASIDA YANGI HODISA <i>Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon qizi</i>	858
SEMANTIK ANALIZATORNING NAZARIY ASOSLARI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI <i>Gulyamova Shaxnoza Kaxramonovna</i>	864